

KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Qaxramon Nishonovich XUSANOV

Iqtisodiyot fanlari (PhD) bo‘yicha falsafa doktori

Toshkent Kimiyo xalqaro universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada ishlab chiqarish korxonalari milliy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lganligi bois ularning qiymatini oshirish bo‘yicha asosiy omillar, jahon amaliyotida korxona qiymatini oshirishga ta’sir etuvchi omillarga nisbatan yagona yondashuv mavjud emasligi ko‘rib chiqilgan. Shu sababli korxona qiymatini oshirishda uning moliyaviy barqarorligini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish, tahlil qilish va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash choralari batafsil o‘rganilgan.

Tayanch so‘zlar: barqarorlik, iqtisodiy barqarorlik, korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish, korxona moliyaviy barqarorligini baholash, korxona moliyaviy barqarorligi darajasi, likvidlik, rentabellik.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

Кахрамон Нишонович ХУСАНОВ

Доктор философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкентский международный университет Кимё

Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье рассмотрены основные факторы повышения стоимости предприятий так как они являются важной целью национальной экономики. В мировой практике не существует единого подхода к факторам, влияющим на повышение стоимости предприятия. Поэтому в целях повышения стоимости предприятия детально изучались формирование и анализ системы показателей, характеризующих его финансовую устойчивость, и меры по обеспечению финансовой устойчивости.

Ключевые слова: устойчивость, экономическая устойчивость, управление финансовой устойчивостью предприятия, оценка финансовой устойчивости предприятия, уровень финансовой устойчивости предприятия, ликвидность, рентабельность.

Xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy barqarorligi deganda uning zaxiralari va xarajatlarini shakllantirish manbalari bilan ta’minlashni tushunish kerak. Moliyaviy barqarorlikning eng yuqori ko‘rinishi korxonaning birinchi navbatda o‘z mablag‘lari manbalari hisobidan rivojlanish qobiliyatidir.

E.A.Akramov moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlarini tavsiya etgan, unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi [1].

T.S.Malikov xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuvi koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlarini (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrchilik koeffitsiyenti) ifodalaydi [2].

M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlarning fikricha, moliyaviy barqarorlikni korxonaning o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbatidan [3].

V.R.Bank korxonaning moliyaviy barqarorligi – bu maqbul xavf sharoitida uzluksiz ishlash, yetarli rentabellik va majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash qobiliyatini ta'minlaydigan moliyaviy resurslar, ularni taqsimlash va ishlatish holatini ifodalaydi [4], deb ta'kidlaydi.

A.D.Sheremet fikricha, moliyaviy barqarorlik qoniqarli balans tuzilishi bilan tavsiflanadi va iqtisodiy faoliyatning moliyaviy natijalarini aks ettiradi [5].

Iqtisodiy va yuridik lug'atida moliyaviy barqarorlik deganda "moliyaviy balansda ifodalangan moliyaviy holatning barqarorligi, aktivlarning yetarli likvidligi, zarur zaxiralarning mavjudligi" deb ta'rif berilgan. Bunda asosan balans ko'rsatkichlarini tahlil qilish, aktivlarning likvidiligini ifodalash orqali baholashni taklif qilgan.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy barqarorlikning iqtisodiy mohiyati moliyalashtirish manbalarida kapitalning yetarlicha ulushini, barqaror to'lov qobiliyatini ta'minlashdan iborat. Korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi.

Moliyaviy barqarorlikni baholash vazifasi aktivlar va passivlarining hajmi hamda tuzilishini baholashdan iborat. Aktivlar va umuman mulkning har bir

elementi uchun mustaqillikni tavsiflovchi ko'rsatkichlar tahlil qilinayotgan tashkilotning moliyaviy jihatdan yetarlicha mustahkam yoki yo'qligini o'lchash imkoniyatini beradi.

Moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishning maqsadi korxonalarning moliyaviy mustaqillik darajasini baholash: ya'ni o'z mablag'larining ulushi qarz majburiyatlariga nisbatan yuqoriligini ifodalashidir.


Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari korxona egalari va kreditorlar o'rtasidagi tavakkalchilikning qanday taqsimlanganligini ko'rsatadi hamda moliyaviy qaramlik va moliyaviy mustaqillik, aktivlarning qaramlik koeffitsiyenti, foizlarni qoplash koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlardan foydalanish orqali ushbu moliyaviy holatini aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Davlat ulushi mavjud korxonalarning moliyaviy barqarorligi – davlat ulushiga ega korxonalarning o'z va qarz mablag'larini maqsadli boshqarishi hamda mavjud majburiyatlarini o'z vaqtida amalga oshirishi hamda barqaror o'sish ko'rsatkichlarini aks ettirishini tushunish mumkin.

Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini qo'yidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- chetdan jalb etilgan mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar.

Ko'pgina mualliflar barcha sohalar uchun bir xil bo'lgan ko'pgina ko'rsatkichlar uchun bir qator standart qiymatlarni taklif qiladilar, ammo aslida har bir soha likvidlik, rentabellik, aylanma mablag'lar ko'rsatkichlarining maqbul qiymatlari uchun o'z chegaralariga ega bo'lishi kerak.



1-rasm. Korxonalarning moliyaviy barqarorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar.

Korxonalarning jami aktivlari tarkibida pul mablag'lari eng muhim moliyaviy aktiv sifatida tan olinishini hamda korxonaning tezkor likvidligi ya'ni joriy aktivlari bilan joriy majburiyatlarini qoplash koeffitsiyenti aynan pul mablag'lariga bog'liq bo'lgan muhim iqtisodiy ko'rsatkichlari ekanligini ta'kidlab o'tgan. Bu ko'rsatkichlar korxonalarning moliyaviy holatini baholashda qo'llaniladi.

Korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda moliyaviy samaradorligini baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar ham belgilanadi:

daromad;

sof (taqsimlanmagan) foyda;

sof aktivlar va davlat byudjetiga o'tkaziladigan foydaning bir qismi, shuningdek davlat funksiyalari va vazifalarini bajarish ko'rsatkichlari;


debitor va kreditor qarzdorliklari hisobi;

tegishli rentabellik ko'rsatkichlari.

Ushbu ko'rsatkichlarni shakllantirishda va faoliyat samaradorligini baholashda asosiy moliyaviy hisobotlaridan: buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, debitor va kreditorlik to'g'risidagi hisobot, muddat o'tgan byudjet va davlat maqsadli jamg'armalari oldida kreditorlik qarzдорligi to'g'risidagi hisobotlardan foydalaniladi.

Ushbu hisobotlar tahlili bo'yicha aniqlangan ko'rsatkichlar qiymatlari ularning moliyaviy holatini baholab beradi, ya'ni korxonalarning moliyaviy barqarorligi va bankrotlik holatlarini aniqlashga imkoniyatlarini ta'minlaydi.

Moliyaviy barqarorlik bu qisqa muddatli to'lov qobiliyati, likvidlik, joriy majburiyatlarni to'lash uchun mablag'larning mavjudligidir. Shu bilan birga, korxona o'zining moliyaviy faoliyati uzluksizligini ta'minlash, bundagi barcha risklarni boshqarish hamda belgilangan ijobiy ko'rsatkichlarga erishishini tavsiflaydi.



2 -rasm. Korxonaning moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi sxema.

Moliyaviy xavfsizlik – korxona o'z strategiyasini amalga oshirish uchun kerak bo'lgan moliyaviy barqarorlikning cheklangan holatini belgilaydi. korxonaning tashqi va ichki tahdidlariga qarshi turish qobiliyati bilan tavsiflanadi.


Moliyaviy moslashuvchanlik – korxonaning tashqi va ichki o‘zgaruvchan sharoitlarga muvofiq moliyalashtirish hajmi va investitsiya qilish yo‘nalishlarini o‘zgartirish qobiliyatini tavsiflaydi. Bunda, korxonaning moliyaviy boshqaruv faoliyatining diversifikatsiyalanishini tushunish mumkin.

Moliyaviy barqarorlik – moliyaviy ko‘rsatkichlarning maqbul qiymatlarini belgilab olish hamda haqiqiy ijrosini ushbu ko‘rsatkichlar atrofida bo‘lishini ta’minlashdir.

Moliyaviy balansni ta’minlash – korxona rivojlanishining muvozanatini tavsiflaydi, ya’ni rentabellik va risklarning optimal kombinatsiyasi orqali erishishni nazarda tutdi.

Moliyaviy barqarorlikni tor doirada ifodalanishi qisqa va uzoq muddatlardagi to‘lov qobiliyati, likvidiligi, rivojlanish uchun pul mablag‘lari va resurslarning mavjudligini ifodalaydi.

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi aktivlar va kapital strukturasi orqali myctaxkamlanadigan ko‘rsatkich hamda moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichi korxonaning moliyaviy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi va zaruriy shartidir. Korxonaning moliyaviy barqarorligini ta’minlanish darajasini “moliyaviy barqarorlik – to‘lov qobiliyati – xavf (risk)” ko‘rsatkichlari orqali baholanadi



3-rasm. Moliyaviy barqarorligini baholashni parametrlari.

Davlat ulushi korxonalarning moliyaviy barqarorligi – davlat ulushiga ega korxonalarning o‘z va qarz mablag‘larini maqsadli boshqarishi hamda mavjud majburiyatlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi, shu bilan birga, barqaror o‘lish ko‘rsatkichlarini aks ettirishini tushunish mumkin.

Bunda davlat korxonalarning moliyaviy holati baholanishi ko'rsatib o'tilgan.

Bunda davlat korxonalari:

- moliyaviy barqaror;
- moliyaviy inqiroz oldida;
- hamda moliyaviy inqiroz yoki bankrotlik holatida deb ajratish mumkin.

Barcha davlatlarda davlat korxonalarning saqlab qolinishi bo'yicha sabablar bir xilligicha qolmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlar:

- iqtisodiy rivojlanib kelayotgan davlatlarning iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish;
- aholiga arzon va sifatli xizmatlari ta'minlash hamda boshqa ijtimoiy maqsadlar uchun;
- kam rivojlangan yoki xususiy sektor jalb qilish qiyin bo'lgan hududlarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish.

Davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillar tahlili amalga oshirilganda birinchi navbatda, davlat korxonasining asosiy faoliyat maqsadlari, vazifalari o'rganilishi talab qilinadi. Bu orqali ushbu davlat korxonasining davlat siyosati va tijorat maqsadlarining muvofiqlashtirilganligi hamda boshqaruvda ushbu muvofiqliklarning ta'minlanishi nazarda tutilishi lozim. Davlat korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda boshqaruvning tegishli modellaridan foydalanish talab etiladi. Bunda davlat korxonalarining belgilangan maqsad va vazifalarini muvofiqlashtirish imkoniyatlari beriladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. — Toshkent: Moliya, 2003.
2. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi: o'quv qo'llanma /i.f.d., prof. A.V.Vahobovning umumiy tahriri ostida. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2009.
3. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). — Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. — 197 b.

4. Банк В. Р. Финансовый анализ: учеб. пособие. / Банк С. В., Тараскина Л. В. – Москва: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. – 344 с.

5. Шеремет А.Д. Теория экономического анализа: Учебный курс. 2-е изд., 107 перераб. и доп. / А.Д. Шеремет. – Москва: ИНФРА-М, 2009. – 365 с.